



# **O'ZBEK**

## **MATNSHUNOSLIGINING**

### **DOLZARB MASALALARI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK**  
**MATNSHUNOSLIGINING DOLZARB**  
**MASALALARI**

*Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari*

**2025-yil 10-oktabr**

**QARSHI**  
**“ILM-FAN-MA‘NAVIYAT” NASHRIYOTI**  
**2025**



Ushbu ilmiy to'plam O'zbekiston Respublikasi Olin ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27-dekabrda "2025 yilda xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 490-sonli buyrug'i 1-ilovasiga muvofiq 2025 yil 10 oktabr kuni Qarshi davlat universitetida "O'zbek matnshunosligining dolzarb masalalari" mavzusida respublika miqyosidagi bo'lib o'tadigan ilmiy-amaliy anjuman tezislardan iborat.

Anjuman materiallarida hozirgi o'zbek matnshunosligining muhim nazariy va amaliy muammolari muhokama qilingan.

### **Mas'ul muharrir**

**Sh.Nuriddinov,**

*filologiya fanlari doktori, dotsent*

### **Tahrir hay'ati:**

<b>R.Jumayev</b>	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent</i>
<b>B.Rizayev</b>	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent</i>
<b>G'.Shodmonov</b>	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent</i>
<b>Z.Namozova</b>	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent</i>
<b>U.Abdullayeva</b>	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent</i>
<b>M.Rayhonova</b>	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent</i>
<b>O.Avaznazarov</b>	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent</i>
<b>Sh.Akramov</b>	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent</i>
<b>F.Qiyomov</b>	<i>o'qituvchi</i>
<b>J.Ismatullayev</b>	<i>tayanch doktorant</i>
<b>Sh.Izmurodova</b>	<i>tayanch doktorant</i>

### **Taqrizchilar:**

**N.Shodmonov,** filologiya fanlari doktori, professor

**Q.Pardayev,** filologiya fanlari doktori, professor

**Maqolalarda keltirilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas'uldirlar.**



Ko‘rinadiki, Alisher Navoiy tomonidan Qutbuddin Ahmadni adabiy maydonda buyuk shuhrat qozongani e‘tirof qilinamaganidan uning nomi boshqa asarlarda nega uchramasligini oz bo‘lsa-da tushunish mumkin. Ehtimol, ism-shariflardagi o‘xshashlik tufayli Xoja Ahmad Jomning asarlari tez orada bobosi Shayx Ahmad Jomning asarlari bilan aralashib ketgandir.

Tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, “Yusuf va Zulayxo” dostoni h. 906/ m. 1501–1502 yili vafot etgan Qutbuddin Ahmad Jom Jandabilga tegishli deyish mumkin bo‘ladi.

Alisher Navoiy «Majolisu-n-nafois»da Ahmad Jomning asarlarida qaysi taxallusdan foydalanganini aniq aytmagan bo‘lsa-da, “Yusuf va Zulayxo” dostonining Berlin nusxasida «Ahmad», Parij nusxasida esa «Ahmadiy» ismlari qo‘llanilganini hisobga olsak, u nazmda «Ahmad» va «Ahmadiy» taxalluslari bilan yozgan bo‘lishi kerak.

Bugungi kunda Sulton Husayn Boyqaro davri shoirlaridan Ahmad Jomning hayoti, asarlari va adabiy shaxsiyati haqida manbalar va doston asosida chiqarish mumkin bo‘lgan ma‘lumotlar juda cheklangani bor gap, biroq mavjud noyob nusxalari “Yusuf va Zulayxo” dostonining muallifi kim ekanini aniq belgilab olishga imkon beradi va asar muallifi noma‘lum degan mavhumotni bartaraf qiladi hamda bu muallifning hayoti, faoliyati, adabiy shaxsiyati va boshqa asarlari haqida keyingi tadqiqotlar uchun asos bo‘lishi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, Ahmad yoki Ahmadiy taxallusi bilan yozilgan, shuningdek, Saljuqiylar davrida yashagan Shayx Ahmad Jom Zindafil qalamiga mansub deyilgan devon va boshqa asarlar muallifi borasida bildirilayotgan ixtilofli fikrlar ularning qaysilaridir “Yusuf va Zulayxo” dostonining muallifi deb qaralayotganimiz Ahmadiyga tegishli bo‘lib chiqishi ham mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. Бертельс Е. Э., Узбекский поэт Дурбек и его поэма об Иосифе Прекрасном. – Ташкент, альм. «Дар», 1944.
2. Дурбек. Юсуф ва Зулайхо. – М.: “Художественная лит-ра.”, 1987.
3. Хайдаров С. Роль Дурбека в развитии узбекской светской литературы: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1962. – 22 с.



4. Лапасов Ж. Дурбекнинг “Йусуфу Зулайхо” достони морфологияси: Филол. фанлари номз. дисс. – Тошкент, 1971. – 234 б.
5. Муллахўжаева К.Т. “Юсуф ва Зулайхо” достони муқаддимасидаги маълумотларнинг амалий қиммати. – Б. 137 – 144.
6. Навоий, Алишер. Мажолис ун-нафоис. Тўла асарлар тўплами. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2011. – Б. 289 – 448.
7. Расулов Х. Дурбекнинг “Юсуф ва Зулайхо” достонида фольклор анъаналари ва новаторлик // Адабий мерос. – Тошкент, 1974. – 9-сон. – Б.15-22.
8. Қурбонов А. “Юсуф ва Зулайхо” достонининг ижодий талқинлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1997. – 1-сон. – Б.47-48.
9. Korkmaz, Zeuner. Türk Dili Üzerine Araştırmalar I – II. E-kitap Ankara: Türk Dil Kurumu, 2023. – 959 s.
10. Halide Cemil Dolu. “Yüsuf hikayesi” Hakkında Birkaç Söz va Bazi Türkçe Nushalar // Turk dili va adabiyoti dergi C. IV/4. – Istanbul. Mayis1952, - S. 420–455.
11. “Yusuf va Zulayxo” qo‘lyozma. – Bibliotheca Regia Berolinensis. No 1650.
12. “Yusuf va Zulayxo” qo‘lyozma. – Bibliothèque nationale de France. Département des manuscrits. Supplément turc 1365
13. “Yusuf va Zulayxo” qo‘lyozma. – O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar xazinası. Inv. № 1433.
14. “Yusuf va Zulayxo” qo‘lyozma. – O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar xazinası. Inv. № 7412.
15. “Yusuf va Zulayxo” qo‘lyozma. – O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar xazinası. Inv. № 185.

## MUQIMIY ASARLARI MANBALARIDA YASHIRINGAN HAQIQAT

*Qo‘ldosh Pardayev,*  
*TOSHDO‘TAU, f.f.d.(DSc), professor*

**Annotatsiya:** Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy asarlarining nashrlari matnini shoir dastxat bayozlari bilan qiyoslaganda, aksariyat she‘riy asarlar matni asliyatga muvofiq emasligi ma‘lum bo‘ldi. Chunki sho‘ro davri mafkurasi talabidan kelib chiqib, shoirning diniy-tasavvufiy mavzudagi she‘rlari tahrirga uchradi, qisqartirildi. Hajviy asarlar matnidagi kuchli ijtimoiy tanqidiy bayt va bandlar ham tushirib qoldirildi. Umuman, shoir asarlari o‘sha davr mafkurasiga moslashtirilib “g‘oyaviy tozalash”ga uchrangani asarlarining mavjud nashrlardagi matnlariga tanqidiy munosabatda bo‘lish kerakligi ta‘kidlanib, “g‘oyaviy tahrir” natijasida shoir lirik va hajviy asarlari nashrlarida ko‘plab matniy tafovutlar yuzaga kelgani, bu esa asar talqiniga ham jiddiy ta‘sir ko‘rsatgani, asarlari shoir ruhiyati,



*dunyoqarashi yashirilgan holda kitobxonlar hukmiga taqdim etib kelingani haqida ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan.*

**Kalit soʻzlar:** satira, nashr, shoir, misra, bayt, adabiy muhit, uslub, talqin, tahrir, qoʻlyozma, gʻazal, sheʼr, Turkiston.

Milliy adabiyotimiz tarixida XIX asr oxiri XX asr boshlari Qoʻqon adabiy muhitidan yetishib chiqqan ijodkorlar adabiy merosi alohida oʻrin tutadi. Bu adabiy muhitning zabardast namoyandasi Muhammad Aminxoʻja Muqimiy asarlari har doim mutaxassislar diqqat markazida boʻlgan.

Shoir asarlari “Devon” tartibida tuzilgan emas. Shunday boʻlsa-da, XX asr boshlarida toshbosma usulida “Devon” deb atalgan sheʼrlar majmuasi nashr qilingan [1, 23, 44-, 22-6]. Ammo bu toʻrtala toʻplam ham devon tuzish talablariga rioya etilmagan holda tartiblangan. Shuning uchun ham mazkur toʻplamlarni “Devon” deb emas, balki sheʼrlar majmuasi sifatida qabul qilish mumkin.

Maʼlumki, shoir ijod namunalari yuzasidan koʻplab tadqiqotlar yaratilgan. Taassufki, ularda Muqimiy asarlari shoʻro davri mafkurasi talabiga koʻra bir tomonlama talqin qilingan. Natijada, shoir nazmiy merosi oʻzining asosiy mohiyatidan uzoqlashtirildi. Yaʼni asarlari tahrirga uchradi, qisqartirildi, manbalarda qolib ketdi. Bu esa, oʻz navbatida, shoir adabiy merosini yangicha mezonlar asosida xolis va haqqoniy oʻrganish zaruratini taqozo etadi. Muqimiy asarlari turli qoʻlyozma va toshbosma bayozlarda, sanʼatkorlarning yon daftarlarida, adabiyot havaskorlari kolleksiyalarida, ayrim parcha qogʻozlarda turli kishilar qoʻlida saqlanib kelindi. Taʼkidlash joizki, shoir asarlarini yigʻish va nashr etishda professor Gʻ. Karimovning xizmatlari katta. U Muqimiy “Asarlar toʻplami”ni jami toʻrt marta (1958- 1960-1973-1974) chop ettirdi. Afsuski, bu nashrlarda Muqimiy ijodi kommunistik mafkuraning kuchli tazyiqi sabab toʻliq va mukammal holda nashr etilgan emas.

Muqimiyshunos olimlar tadqiqotlarida shoʻro davri mafkurasiga koʻra shoir ijodining quyidagi jihatlari ataylab buzib koʻrsatildi. Birinchidan, shoirning diniy-tasavvufiy ruhdagi aksariyat sheʼriy asarlari nashr etilmay qoldi. Ikkinchidan, Muqimiyni boy, savdogar, qozilarga qarshi qilib koʻrsatish tadqiqotlar uchun



ustuvor vazifa etib belgilandi. Uchinchidan, Muqimiyning “Saroy adabiyoti” va an’analariga bo‘lgan munosabati noto‘g‘ri talqin qilinib, ulardan sinfiy kurash alomatlarini izlandi.

Shoirning turli janrlardagi lirik she’rlari singari “Darig‘o mulkimiz”, “Hajvi Bekturboy”, “Dar mardumi Oqjar batariqi muxammas”, “Dar mazammati zamona”, “Ho‘qandlik bir boyni sha’niga Muqimiy shoirning aytgon she’ridur”, “Urug‘”, “Veksil”, “Dar mazammati qurbaqa”, “Sayohatnoma” kabi ko‘plab ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi hajviy asarlarining tahrir qilinib, qisqarishlar bilan nashr etilishi buning isbotidir. Jumladan, Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlarining “Bektur” turkumidagi hajviy asarlari ham o‘sha davr manzaralari tasviriga qaratilgan. Muqimiy ham Zavqiy, Muhyi, Zoriy, Muhayyir va Qoriy singari bu mavzuda “Hajvi Bekturboy”, “Hajvi Bektur”, “Voqyeai Bektur” hajviy she’rlarini yozgani mutaxassislariga ma’lum. Muqimiyning “Hajvi Bektur boy” she’ri matnini ilk marotaba N.Ostroumov Sankt-Peterburgda nashr etilib turgan “Записки Восточного отделения императорского Русского Археологического общества” to‘plamining 1894 yildagi IX tomida “Песня – сатира Виктор бая” sarlavhasi ostida ikki tilda – o‘zbekcha va ruscha tarjimada chop ettirdi.

Xo‘sh, bu satiraning yozilishiga sabab bo‘lgan firibgar shaxs kim? Bu haqda “Записки Восточного отделения императорского Русского Археологического общества” to‘plamining 1894 yildagi IX tomidagi so‘z boshida quyidagicha ma’lumot uchraydi: “1891 yilning iyul oyida men Qo‘qonda edim (N.Ostroumov). O‘sha yerlik qozi bilan tanishib qolib, pochta stansiyasidan uning uyiga bordim. Kechqurun mehmondo‘st qozi o‘z uyiga uchta hofizni taklif etdi... Hofizlar bir qancha ashulalar aytishdi. Bular orasida Xudoyorxon haqidagi hamda “Bekrurboy” ashulasining tekstini topishga muyassar bo‘ldim. “Bekrurboy” ashulasining qahramoni (Bektur Dimitrievich Axmatov) og‘a-ini Kamenskiylarning Qo‘qondagi kontorasida bosh boshqaruvchisi edi... Axmatov kontoraga tegishli pullarni yig‘a boshlaydi: ularning bir qismini o‘zi olib qoladi, mol-mulkini esa boshqa kishi nomiga o‘tkazadi. Shunday qilib, 1889 yilning oktabriga kelib kontoradagi pullar



207 ming soʻmga kamayib ketadi. Axmatovga qarshi formal daʼvo qoʻzgʻatildi. Shundan keyin mahalliy boylar undan oʻz pullarini talab qila boshladilar...”

Bu firibgar Bekturboyning barcha tavlomachiliklari davr shoirlari qalamida keng yoritildi. Bu xususda adabiyotshunoslikda muayyan fikrlar bildirilgan [3,152-b; 4, 150-b; 2,39-b]. Jumladan, adabiyotshunos A.Olimjonov “Hajvi Bekturboy” sheʼrining yozilish tarixini N.Ostruomov maʼlumoti asosida taʼkidlab, bunday yozadi: “Voqeani Bektur” asarida Bektur bilan muomalada boʻlgan, hiylagarlikda, ochkoʻzlikda va xasislikda undan ham oshib tushuvchi Hodixoʻja boy obrazini yanada toʻlaroq berishga... Bu salbiy tip xarakterini yaqqol gavdalantirishga harakat qilgan” [2, 39-b].

Koʻrinadiki, olim masalaga biryoqlama yondashadi. Natijada asarning asosiy gʻoyasi qolib, mahalliy boylar haqida xususan, Hodixoʻja eshon tilga olinadi. A.Abdugʻafurov mazkur hajviy asarlar yuzasidan toʻgʻri xulosaga kelsa-da, “Hajvi Berturboy” muxammasining ikki bandi haqida bir ogʻiz ham fikr bildirmaydi. Chunki olim “Sharq yulduzi” jurnali 1956 yil, 8-sonida “Muqimiyning yangi topilgan sheʼrlari” sarlavhali maqolasida mazkur sheʼrning 5 bandini keltirib, 1 bandini tushirilib qoldirgan edi. Olimning “...Muxammasda asosiy nayza “makru hiyla ishlatgan” tovlamachi Bekrurga qarshi qaratilgan boʻlsa-da, shoir boylikdan ajrab, “singan” savdogar sudxoʻrlarga achinish hissini aslo uygʻotmaydi”, – degan fikrlarida biryoqlama talqin kuzatiladi [3,35-b].

Gʻ.Karimov “Hajvi Bekturboy” hajviyasining yozilish tarixi, Bekturboy firibgarliklari haqida soʻz yuritib, Muhyining mazkur turkumdagi sheʼri haqida bahstlab fikrlar bildiradi: “Muhyi satiralari uchun feodal-klerikal adabiyotning gʻoyaviy yoʻnalishi, diniy mazmun, panislomistik ruh xosdir... Temani ishlashda, talqin qilishda Muqimiy Muhyiga prinsipial zid turadi” [4, 20-b]. Izlanishlarimiz natijasida bunday biryoqlama talqinlar asossiz ekanligini koʻrsatmoqda. “Muqimiy asarlar toʻplami”da “Hajvi Bekturboy” hajviyasi 4 band boʻlgani holda 2 bandi tushirib qoldirilgan. Natijada asarning asosiy gʻoyasi soyada qolib ketgan. Aslida esa mazkur hajviya “Zapiski Vostochnogo otdeleniya imperatorskogo Russkogo



Arxeologicheskogo obshestva” to‘plamining 1894 yildagi IX tomida 6 band holda uchraydi. Muqimiy asarlari nashrlaridan tushirib qoldirilgan bandlar quyidagicha:

*Shikva qilsam joizdir, zamonalar na bo‘ldi?*

*Botil mazhab muravvaj, musulmonlar xor bo‘ldi.*

*Bektur tutgan ishiga yurak-bag‘rim qon bo‘ldi,*

*Kimki sanga pul berdi, ko‘p yaxshi deb qo‘l qo‘ydi,*

*Bir umr ani ishi armon ekan, Bekturboy.*

*Bo‘lmas duo ijobat betaqvou betoat,*

*Ko‘rmas jannat yuzini har kimda yo‘q diyonat,*

*Mo‘min qullar qilmaydur amonatga xiyonat,*

*Arzon emas beillat, qimmat emas behikmat,*

*Noinsofu betavfiq, olg‘on ekan, Bekturboy.*

Shoir “*Shikva qilsam joizdir, zamonalar na bo‘ldi?*” – deya o‘sha davr ijtimoiy muhiti, undagi tartib-qoidalar to‘g‘risida, jamiyatdagi chor hukumati o‘rnatgan adolatsizliklar haqida bong uradi. Musulmonlarning kofirlar zulmidan xor bo‘lishi-yu, Bekturning firibgarliklari shoirning haqli e‘tiroziga sabab bo‘ladi.

Adabiyotshunos R.Tojiboev ham “Hajvi Bekturboy” muxammasining tushirib qoldirilgan ikki bandini keltirib, bunday yozadi: “Mazkur bandlar Muqimiy asarlarini nashrga tayyorlovchilar tomonidan shoirning chop etilgan to‘plamlariga nega kiritilmagani bizga qarong‘u. Taxminimizcha, ulardagi chor Rossiyasi istilosiga munosabat (“zamonalar na bo‘ldi?”, Botil mazhab muravvaj, musulmonlar xor bo‘ldi”) fikrlar g‘oyaviy-siyosiy jihatdan “ehtiyotkor” bo‘lgan noshirlarni cho‘chitgan bo‘lishi mumkin” [5, 45-b].

Xullas, Muqimiyning “Hajvi Bektur” hajviy asari matnining joriy nashrlardan tushirib qoldirilgan bandlari yangicha mulohaza yuritish, muhim umumlashma xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Muqimiy ijodiga bunday biryoqlama yondashuvni shoirning turkum ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi she‘riy asarlari talqinida ko‘ramiz. Bu esa, Muqimiyni boy, savdogar, qozi va din peshvolariga qarshi qilib ko‘rsatishda kuzatiladi. Misol uchun,



shoirning “Sayohatnoma” asari talqini buning isbotidir. “Sayohatnoma”ning “Qo‘qondan Shohimardonga” qismining 8-bandi barcha Muqimiy asarlari joriy nashrlarida quyidagicha berilgan:

*Unda bo‘lus G‘ozi dedi,  
Ham mufti, ham qozi dedi,  
Yurt barcha norozi dedi,  
Qilg‘on ishi ozor ekan.*

Mazkur band talqini haqida dastlab adabiyotshunos H.Yoqubov bunday yozgan edi: “Shoir bu yerdan Do‘rmancha mavzeiga o‘tadi. Bu yerning bo‘lusi ham Iso sarkordan sira qolishmaydi. U, erta-yu kech ko‘knori ichib, badmast holda yuradi va bir necha mansabni o‘z qo‘liga kiritib olgan.” [6, 99-b]. A.Abdug‘afurov fikri ham xuddi shunday: “Qishloqdagi barcha mansablarni egallab olgan amaldorlarning zolimligi, “ozor” berishi, “yurt”ning esa “norozi”ligi kabi katta ijtimoiy mazmun quyidagi bandda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yaxlit va dangal ifodalangan”. [3, 65-b]. Professor G‘.Karimov esa mazkur band talqiniga batafsilroq to‘xtaladi: “Do‘rmancha qishlog‘ining hokimi ham yaramas fe‘l-atvori bilan Hoji Isodan qolishmaydi. Shuning uchun u ham Muqimiy tanqididan omon qolmaydi. Do‘rmonchada volost’ hokimi (“bo‘lis boshlig‘i”) bo‘lib turgan G‘ozi ismli kishi zolimlik bilan shuhrat qozongan, el-yurt nafratiga uchragan edi” [7, 121-b].

Ko‘rinadiki, deyarli muqimiyshunos olimlar fikrlari bir xil. Qanday qilib bo‘lmasin qozi, mufti, hojilarga salbiy munosabat bildirilish kerak. Endi mazkur bandning asliyatdagi [6352, 181<sup>b</sup>] bandini keltiramiz:

*Anda bo‘lus hoji dedi,  
Ham mufti ham qozi dedi,  
Yurti hamma rozi dedi,  
Bechora beozor ekan.*

Umuman, davr talabi nuqtayi nazaridan bandning barcha misralari tahrir qilingan. Natijada muallifning mufti, hoji va qozilar haqidagi rost gaplari yolg‘onga do‘ngan, matn asliyatdan mutlaq yiroqlashgan. Aslida esa mazkur bandda G‘ozi obrazining o‘zi yo‘q.



Muqimiyshunoslar tilga olgan badkor Hoji Iso kim? Bu savolga javob topish uchun mazkur asarning 5-bandiga e'tibor qaratamiz. Muqimiy asarlari joriy nashrlarida band quydagicha keladi:

*Mingboshilik kimning ishi,  
Desam, dedi bedonishi,  
Bir "Qo'shtegirmonlik kishi,  
Xo'ja Iso badkor ekan.*

Asliyatda esa band bu tarzda:

*Mingboshilik kimning ishi,  
Desam, dedi bir donishi,  
Bir "Qo'shtegirmonlik" kishi,  
Xo'ja Iso bekor ekan.*

Ta'kidlash joizki, Muqimiy asarlar nashrining [8, 149-b] ba'zilarida 4-misrasi "Xo'ja Iso sarkor ekan" shaklida uchraydi. Ko'rinadiki, bandning 2-misrasidagi "bir donishi" so'zining "bedonishi"ga aylantirilishi muallif badiiy niyati butunlay teskari talqin etilishiga olib kelgan. 4-misradagi "bekor" so'zi "badkor", "sarkor" tarzida tahrir qilinishi misralar mazmuniga mos emas. Asliyatdagi band misralari mazmunidan ma'lumki, Muqimiy so'rayapti. Bu joyning mingboshisi kim? Shunda bir donish odam bir "Qo'shtegirmonlik" kishi ekanligini aytib, Xo'ja Iso mingboshilik lavozimidan bo'shagani ta'kidlanmoqda.

Xuddi shunday holni Muqimiyning "Turkiston viloyatining gazetisi" 1903-yil 15-yanvar, 2-sonida chop etilgan 31 baytli "Ho'qandlik bir boyning sha'niga Muqimiy shoirning aytkon she'ridur" sarlavhali hajviy asari talqinida ham ko'ramiz. Negadir, barcha Muqimiy asarlari nashrida she'rning nomlanishi "Voqyeai ko'r Ashurboy hoji" deb nomlangan. Muqimiy asarlar nashrida she'rning 2-, 7-, 15-bayti quyidagicha berilgan:

*Ashurboydin eshiting qissae,  
Ayo ey bu Farg'onada nomdor.  
Ko'rub dedilar: boy ekan, qochiring,  
Ashur ko'r o'zi ham bo'lub beqaror.*



*Sekinroq gapir, men Ashurboy – dedi.*

*Qochib o'lturibman, senga intizor.*

Mazkur baytlarni “Turkiston viloyatining gazetisi”da esa bu tarzda o‘qiymiz:

*Eshiting o'shal boydin qissae,*

*Ayo ey bu Farg'onada nomdor.*

*Ko'rub dedilar: boy ekan, qochiring,*

*Oyog'ida kishan qochururg'a ozor.*

*Sekinroq gapir, men falonboy – dedi.*

*Qochib o'lturibman, senga intizor.*

Ko‘rinib turibdiki, biron joyda Ashurboy obrazi yo‘q. She‘r misralari noshirlar tomonidan tahrir qilinib o‘zgartirilgan. Shundan so‘ng, hajviy she‘rga “Voqyeai ko‘r Ashurboy hoji” deb sarlavha qo‘yilgan. She‘rning 26-bayti sho‘ro davri mafkurasiga ko‘ra quyidagicha qayta yozilgan:

*Haqorat qilingan kishilar qolib,*

*Topib boy so'zi bunda zo'r e'tibor.*

Bayt haqida adabiyotshunos A.Abdug‘afurov bunday yozgan edi: “Ushbu satirada alohida diqqatga sazovor yana bir bayt bor. Unda shoir “boy so‘zi” “zo‘r e‘tibor” topishining asl sabablaridan biriga – pul, oltinning u tuzumda hal qiluvchi rolga aniq ishora etadi. Ashurboy hoji “g‘ubor”ni yuvish uchun barcha amaldorga “nihoniy” oltin-kumushlar (“siymu zar”)ni “suv kabi” ishlatadi, pora beradi”. [3,14-b]. Boshqa muqimiyshunoslar fikri ham shunga mutanosib. Aslida “Turkiston viloyatining gazetisi”da bayt bunday edi:

*Eshonlar qolib dukchini aybig'a,*

*Bu odam uyatig'a ahli tujjor.*

Bunday tahrir qilinib, misralari qayta yozilgan she‘riy asarlar Muqimiy asarlar nashrida ko‘plab uchrashini ta‘kidlash kerak.

Bunday holni shoirning “Dar mazammati zamona” sarlavhali ijtimoiy-siyosiy mavzudagi she‘ri misolida ham kuzatish mumkin. Afsuski, she‘r matni Muqimiy asarlari tabdil nusxalarida 10 bayt holida bo‘lib, yetti bayti tashlab ketilgan. Bu esa shoirning chor mustamlakasiga bo‘lgan tanqidiy qarashining yashirilishiga olib



kelgan. Misol uchun, nashrlardan tushirib qoldirilgan she'ning 2-, 3-bo'lib keluvchi baytlari Muqimiyning 1325- raqamli dastxat bayozida (120<sup>a</sup>) quyidagicha keladi:

*To 'lib cherkas, qizilbosh, armanilar shahrimiz ichra,  
Musulmonlar tahipo yaxshilar ko 'zdin nihon bo 'ldi.  
Hamiyat aylab Ahmadjon turib tujjor ahlidin,  
Shijoatdin tanida har sari muyi sinon bo 'ldi.*

Muqimiy asarlari tahriri natijasida shoir asarlari nashrlarida ko'plab matniy tafovutlar yuzaga kelgan. Bu esa asar talqiniga ham jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Muqimiyning "Sayohatnoma" asari o'z mohiyatidan uzoqlashtirilib talqin etilganligi, "Hajvi Bektur", "Darig'o mulkimiz" hajviy asarlari matni tahrir qilinib, joriy nashrlardan tushirib qoldirilgan bandlari yangicha mulohaza yuritish, muhim umumlashma xulosalar chiqarish imkonini beradi. Misralari qayta yozilgan "Ho'qandlik bir boyning sha'niga Muqimiy shoirning aytgon she'ridur" sarlavhali she'ri kabi asarlar Muqimiy asarlar nashrida ko'plab uchrashini ta'kidlash kerak. Shoirning manbalardan yangi aniqlangan diniy-tasavvufiy mavzudagi g'azal va muxammaslari mohiyatan diniy-tasavvufiy g'oyalarning badiiy talqiniga bag'ishlangan bo'lsa-da, shoir she'rlar mazmuniga zulm va bid'atning ofat manbai ekani, adolatni ulug'lash kabi fikrlarini singdirib yuborgan. Bu asarlar Muqimiyning dunyoqarashi, shoir ijodiy merosining ko'lami haqidagi sho'rolar davridagi tadqiqotlar asossiz ekanligini ko'rsatadi.

Muqimiy haqida ma'lumot beruvchi ko'plab manbalar ijodkor shaxsiyati va dunyoqarashi haqida teranroq mulohaza yuritishga undaydi. Shu bois shoirning yangi topilgan ijod namunalarini tadqiq etish zarur. Muqimiy yashagan davr Vatanimiz tarixida ko'plab ijtimoiy ziddiyatlarga boy bo'lgan davrdir. Shu jihatdan, shoir adabiy-estetik dunyosini, muhit va jamiyatga munosabatini o'rganishda yangi topilgan she'rlari tahlili ilmiy qimmatga molik.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўз ФАШИ, тошбосма. №10119 ; №309 ; №318; №236
2. Олимжонов Абдулла. Муҳаммад Амин Муқимий. – Тошкент: Фан, 1953.
3. Абдуғафуров Абдурашид. Муқимий сатираси. – Тошкент: Фан, 1976.



4. Каримов Ғулом. Муқимий ҳаёти ва ижоди. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1970.
5. Тожибоев Рустам. “Бир адабий чалкашлик хусусида”. Ўзбек тили ва адабиёти. 2007 йил 6-сон.
6. Ёқубов Ҳомил. “Демократ шоир Муқимий”. Шарқ юлдузи. 1953 йил, 9-сон.
7. Каримов Ғулом. Ўзбек адабиёти тарихи. Учинчи китоб. Тошкент: Ўқитувчи, 1987.
8. Ғафур Ғулом. Муқимий. – Тошкент: Фан, 1942.
9. Каримов Ғулом. Муқимий. Асарлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974.

## “BADOYI’ UL-BIDOYA” DEVONI G‘AZALLARDAGI MUALLIF TAHRIRINING AHAMIYATI

*Husniddin Eshonqulov,*  
*BuxDU, f.f.d. (DSc), professor*  
*Azimjon Hamidov,*  
*BuxDU, o‘qituvchi*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada Alisher Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya” devonining yaratilish tarixi, uning mavjud qo‘lyozma nusxalari hamda devondagi g‘azallar ustida amalga oshirilgan tahrir jarayonlari xususida so‘z yuritilgan. Shuningdek, ushbu devondagi g‘azallarning “Xazoyin ul-maoniy” dan o‘rin olishi natijasida vujudga kelgan matniy tafovutlardagi muallif tahriri masalasiga oydinlik kiritishga harakat qilingan.

*Kalit so‘zlar:* devon, tahrir, matnshunoslik, kotib, nusxa, g‘azal, badiiyat, tafovut.

Alisher Navoiyning ilk rasmiy devoni “Badoyi’ ul-bidoya” turkiy she’riyat tarixida yangi davrni boshlab bergan asar hisoblanadi. Ulug‘ shoir devonning tuzilish tarixi haqida uning debochada “shabob” - yigitlik chog‘lari, Sulton Husayn Boyqaroning taxtga o‘tirganining dastlabki yillarida yozgan she’rlarining xalq orasida mashhur bo‘lganligi haqida shunday deydi:

*Ko‘nglumda ne ma’ni o‘lsa erdi paydo,*

*Til aylar edi nazm libosida ado.*

*Ul nazmg‘a jonin qilibon xalq fido,*



## MUNDARIJA

T/r	Muallifning ismi, sharifi	Maqola nomi	Sahifa
	D.X.Nabiyev	Adabiy meros ma'naviy yuksalishda muhim omil	3
<b><i>1-SHU'BA. MUMTOZ ADABIYOT MATNSHUNOSLIGI MUAMMOLARI</i></b>			
1	N. Jabborov	Matnshunoslik nazariyasiga doir ayrim mulohazalar	5
2	N. Shodmonov	“Yusuf va Zulayxo”ning nodir qo'lyozmalari: muallif muammosi tahlili	15
3	Q. Pardayev	Muqimiy asarlari manbalarida yashiringan haqiqat	26
4	H. Eshonqulov A. Hamidov	“Badoyi' ul-bidoya” devoni g'azallardagi muallif tahririning ahamiyati	35
5	Sh. Nuriddinov U. Abdullayeva	Adabiy matnlarda kotib tahriri masalasi	39
6	Sh. Amonov	Ahmad Tabibiy devonining Ozarbayjon nusxasi haqida	53
7	F. Karimova	Boborahim Mashrabning munosib izdoshi	58
8	N. Bekova, Z.Komilova	Devon Imloyi Buxoriy: adabiy va ma'naviy meros	63
9	A. Muhammadiyev A. Mahmudov	Alisher Navoiy “Xamsa”sining keshlik kotib tomonidan ko'chirilgan qo'lyozma nusxasi	66
10	O. Ravshanov	Hofiz Ro'ziboy Mashrab adabiy merosi	79
11	Z. Shukurova	Bayoz taraqqiyotida Qo'qon bayozchilik maktabining o'rni	84
12	Sh. Kaxxorova	Alisher Navoiy g'azallarida baqo talqini	94
13	A. Arslonov	Payg'ambarlar tarixi va qissalari: vujudga kelish omillari, tadjriji va tamoyillari	102
14	S.Do'stova	Muhammad Yusuf Bayoniy hayoti haqida qo'lyozma	113
15	G'.Shodmonov, Sh.Akramov	Fuzuliy g'azallariga Munis muxammaslarining matniy tadqiqi	117
16	O. Avaznazarov	Navoiy matnshunosligiga doir ba'zi muammolar	126
17	Sh. Qorayev	Manbalarda Xoja Bahouddin Naqshband ilmiy va adabiy suhbatlarining yoritilishi	135
18	D. Abduvaliyeva	“Nahjul-farodis” asaridagi oshxona buyumlari nomlarining tarixiy-etimologik tadqiqi	145
19	T. Shaymardonov	Siddiqiy-Ajziyning “Oyna” jurnalidagi faoliyati	149
20	L. Ahmadaliyev	“Xamsa” tarkibidagi dostonlarni umumlashtiruvchi omil	156
21	M. Rayxonova B. Rizayev	Matnshunoslikda muallif tahriri muammosi	162
22	S. Shodiyeva	Salohiddin Salohiy asarlari qo'lyozma nusxalarining ilmiy tavsifi	168
23	S. Muxamedxodjayeva	Alloma Zamaxshariyning axloqshunoslikka oid asari va uning qo'lyozma va toshbosma nusxalari	174
24	M. Maxamatxonova	Devona Andalibning “Shohnoma”si	182
25	A. Latipov	Turkiy “Nazmi aqoid” nusxalari va muallifi haqida	186
26	S. Fayzullayeva	Aziziyning Navoiy g'azaliga bog'lagan muxammasi xususida	192
27	H. Abduxaliqova	“Rohati dil” dostonining o'zbek tasavvuf adabiyotida tutgan o'rni	196
28	M. Maxsumov	Nafs va ruhiy yetuklik haqida Qur'on hikmati	200
29	M. Axmedova	“Qisasi Rabg'uziy” – agiografik adabiyot durdonasi	206
30	R. Jumayev J. Ismatilloev	Munis Xorazmiy qasidalarining o'rganilishi	211
31	N. Karimova	Alisher Navoiy va mumtoz adabiyotda hamd g'azallarining badiiy va islomiy-irfoniy jihatlari	214